

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRILIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”  
O‘zDJTU rektori v.v.b.

B.Kulmatov

2023 yil “22” *iyun*

60310700–SIYOSATSHUNOSLIK BAKALAVRIAT TA’LIM  
YO‘NALISHI BO‘YICHA IKKINCHI MUTAXASSISLIK UCHUN  
KASBIY IMTIHON DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

**Tuzuvchilar:**

**N.Q. Jo'rayev** – O'zDJTU "Ijtimoiy fanlar" kafedrası mudiri, siyosiy fanlar doktori, professor

**S.Sh. Saidov** – O'zDJTU "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti, siyosiy fanlar doktori (DSc)

**Taqrizchilar:**

**V.H. Qo'chqorov** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, siyosiy fanlar doktori, professor

**B.S. Yakubov** – O'zbekiston tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi raisi o'rinbosari, siyosiy fanlar doktori (DSc)

## Kirish

**60310700–Siyosatshunoslik** ta'lim yo'nalishida kasbiy imtihon o'tkazishdan maqsad, talabgordagi mazkur sohada talab etiladigan ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash mahorati, dalillash va xulosalar chiqarish kabi sifatning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Kasbiy imtihon jarayonida talabgorlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni anglashi;
- Siyosiy hodisa va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- Songgi dolzarb ijtimoiy-siyosiy mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- Siyosiy ong va madaniyatining qay darajada ekanligi;
- Siyosiy ta'limotlarning tarixi haqida tushunchalarning mavjudligi;
- Davlat boshqaruvining asosiy xususiyatlarini anglashi;
- Siyosiy tizim va uning tamoyillarini tushunishi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Mustaqil fikr yuritishi;
- O'z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati.

## Kasbiy imtihonning tuzilishi

**Kasbiy imtihon og'zaki suhbat shaklida o'tkaziladi.** Suhbat mobaynida talabgorlarning siyosiy jarayonlar va davlat boshqaruvi sohasiga qiziqish darajasi, ijodiy qobiliyati va dunyoqarashi baholanadi va u quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- suhbat jarayonida talabgorning sohaga va kasbiy ijodga moyilligi, sohaga qiziqishiga sabab bo'lgan omillar so'raladi hamda siyosiy institut va jarayonlar bo'yicha mavjud bilimi va dunyoqarashi, amaliy tajribasi aniqlanadi;

- jamiyat va davlat hayotida yuz berayotgan siyosiy o'zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo'yicha savollar beriladi;

- O'zbekiston va jahonda sodir bo'layotgan so'nggi tendensiya va yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar bo'yicha savollar berish orqali talabgorning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi o'zgarishlardan boxabarlik darajasi aniqlanadi;

- turli siyosiy hodisalarni tahlil qilishi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlari va uslublari borasida nazariy yondashuv va ko'nikmalarga ega ekanligi belgilanadi;

- zamonaviy xalqaro munosabatlar va globalashuvning o'ziga xos jihatlari borasida tizimli bilimlarining mavjudligi, siyosatshunoslik sohasidagi ilmiy adabiyotlar va manbalar bilan tanishganligi hamda ular asosida shakllangan bilimi baholanadi;

- suhbat davomida siyosiy jarayonlar, institutlar va tendensiyalar bilan bog'liq tegishli savollar beriladi va shu tariqa talabgorning bu sohadan xabardorlik darajasi belgilanadi. Shuningdek, talabgorning muloqotga kirishuvchanligi, istiqbol rejalari, notiqlik qobiliyati, fikrni asosli ifoda etish kabi fazilatlarini aniqlanadi.

## Og'zaki suhbat davomida so'rashga tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:

1. Siyosatning ijtimoiy tabiati va paydo bo'lishini tushuntirishga doir turli nazariy yondashuvlar.
2. Siyosatning shakllari va darajalari: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ichki, tashqi, milliy, xalqaro.
3. Qadimgi Yunoniston va Rimdagi siyosiy fikrlar.
4. O'rta asr Sharq Uyg'onish davrida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining siyosiy fikrlari.
5. G'arb Uyg'onish davri mutafakkirlarining siyosiy ta'limotlari.

6. XIX asr oxiri va XX asr boshidagi siyosiy-huquqiy g'oyalar.
7. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda siyosatshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi, siyosiy bilimning zarurligi va ahamiyati.
8. O'zbekistonda siyosatshunoslik fani taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.
9. Siyosat nazariyasi - siyosiy g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar, konsepsiyalar va qadriyatlar haqidagi fan.
10. Inson "siyosiy mavjudot" sifatida.
11. Siyosiy fan maktablarining paradigmal va lokal darajalari.
12. Kratologiya fanining predmeti, ob'ekti va tarkibi hamda asosiy yo'nalishlari.
13. Hokimiyat legitimligi va samaradorligi.
14. Siyosiy tizim nazariyalari (D.Iston, R.Merton, G.Almond, K.Doych).
15. Siyosiy tizim elementlari, tuzilishi va funksiyalari.
16. O'zbekiston siyosiy tizimining modernizatsiya qilinishi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
17. Jamiyat siyosiy tizimida davlatning o'rni.
18. Davlatlarning ma'muriy-xududiy tuzilishi: unitarizm, federalizm, konfederatsiya.
19. Boshqaruv shakllari: monarxiya, respublika, ularning asosiy ko'rinishlari va belgilari.
20. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va evolyutsiyasi.
21. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.
22. Siyosiy partiyalar siyosiy tizimning o'ziga xos tarkibiy qismi sifatida.
23. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining qaror topishi va uning tasnifi.
24. Demokratik jamiyatda saylovlarning vazifalari, asosiy tamoyillari.
25. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda saylov tizimining shakllanishi va rivojlanishi.
26. "Siyosiy elita" tushunchasi va konsepsiyalari. V.Pareto, G.Moska va R.Mixelsning elita nazariyalari.
27. N.Makiavelli va M.Veberning siyosiy etakchilik to'g'risidagi qarashlari.
28. Siyosiy tizim va siyosiy rejimning o'zaro bog'liqligi.
29. Totalitar siyosiy tizimlarning belgilari, turlicha ko'rinishlari.
30. X.Lins avtoritar siyosiy tartibotlar to'g'risida.
31. Demokratik siyosiy tizim xususiyatlari.
32. Demokratiya tushunchasiga berilgan ta'riflar. R.Dal demokratiya haqida.
33. O'zbekistonda siyosiy tizimning o'zgarishi jarayoni va istiqbollari.
34. Qadimgi va O'rta asrlar demokratiyasi.
35. Liberal demokratiyaning xususiyatlari.
36. Demokratiya "to'lqin"lari.
37. The Economist Intelligence Unit tomonidan ishlab chiqilgan "Demokratiya indeksi" va uning ko'rsatkichlari.
38. Siyosiy madaniyat siyosiy qadriyatlar tizimi sifatida.
39. G.Almond va S.Verba fuqarolik madaniyati haqida.
40. O'zbekiston siyosiy madaniyatining ildizlari, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari.
41. Mafkuraning ijtimoiy hayotdagi o'rni, roli, manbalari va maqomi haqidagi qarashlar.
42. O'zbekistonda milliy g'oya va uning jamiyat xayotidagi o'rni hamda roli.
43. Siyosiy ongning g'oyaviy, kommunikativ, bashorat qilish, tarbiyaviy vazifalari.
44. Siyosiy psixologiya fani, uning ob'ekti va predmeti, o'rganadigan dolzarb masalalari.
45. Siyosat sohasida kommunikatsiya jarayonlarining moxiyati va o'ziga xosligi.
46. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda siyosiy kommunikatsiyalar ahamiyatining ortib borishi, bu boradagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

47. XX asrda jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi.  
 48. Hozirgi zamon xalqaro munosabatlari taraqqiyotining asosiy xususiyatlari.  
 49. Mustaqillik va O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanishi.  
 50. O'zbekistonning umumbashariy, sohaviy va mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi.

### Kasbiy imtihonni baholash mezonlari

Kasbiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi va unda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori - 100 ball etib belgilanadi.

### Og'zaki suhbatni baholash mezonlari

Og'zaki suhbatga 0 – 100 ballgacha qo'yish mumkin.

| №  | Ballar qo'yish mezonlari:  | ballar        |
|----|--|---------------|
| 1. | Siyosatshunoslik, siyosiy hodisa va jarayonlar haqidagi tasavvuri yuzaki, batafsil nazariy bilimi yo'q, talabgorning fikrlashi sayoz, mustaqil fikri yo'q, lekin sohada mutaxassis bo'lish istagi bor  | 0 - 30 ball   |
| 2. | Siyosatshunoslik, siyosiy hodisa va jarayonlar to'g'risida bir oz tushunchasi bor, kasbga qiziqishi kuchli, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarish va islohotlarni qisman tushuntirib bera oladi, sohada mutaxassis bo'lishiga ishonadi  | 31 – 55 ball  |
| 3. | Siyosatshunoslik, siyosiy hodisa va jarayonlarni o'rganishga ko'p vaqtdan beri qiziqadi, fanning nazariy asoslari haqida tushunchasi mavjud, jamiyat va davlat siyosiy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar bilan tanish, sohada yetuk mutaxassis bo'lishiga ishonadi  | 56 – 70 ball  |
| 4. | Siyosatshunoslik, siyosiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish yo'nalishiga ko'p yildan beri qiziqadi, siyosiy ong va madaniyatni oshirish, davlat va jamiyat hayotining siyosiy sohalari hamda zamonaviy xalqaro munosabatlar haqida ayrim bilimlarga ega, kelajakda sohada ishlashiga aniq ishontira oladi                 | 71 – 85 ball  |
| 5. | Siyosatshunoslik, siyosiy hodisa va jarayonlarni o'rganishga yoshligidan qiziqadi, davlat boshqaruv organlarida ishlagan, siyosiy ong va madaniyatni oshirish, davlat va jamiyat hayotining siyosiy sohalari hamda zamonaviy xalqaro munosabatlar haqida tizimli bilimlarga ega, sohada yetuk mutaxassis bo'lishiga ishonadi | 86 - 100 ball |

### Kasbiy imtihon natijalarini apellyasiya qilish tartibi

Kasbiy imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyasiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari xususida e'tiroz bo'lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa talabgorlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Apellyasiya qilish jarayonida talabgorga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi. Kasbiy imtihonda olingan bahoni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyasiya qiluvchi talabgor ishtirokida oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Kasbiy imtihon o'tkazilishiga qadar apellyasiyaga ariza berish va uni ko'rib chiqish tartiblari talabgorlar e'tiboriga yetkaziladi.



## **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Odilqoriev T., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. Darslik. - T.: O'qituvchi, 2011. -344 b.
2. Jumayev R.Z., Madaminova D.I., Mustapova X.I., Suyunova B.S. Siyosiy tahlil. O'quv qo'llanma. TDSHU, 2020. -148 b.
3. Jumayev R., Yovqochev Sh. Siyosiy texnologiyalar. O'quv qo'llanma. TDSHU, 2018. -232 b.
4. Аристотель. Политика// Соч.: В 4 т. / Аристотель. - М.: Мысль, 1983.
5. Гаджиев К. Политическая наука/ К.С. Гаджиев. - М., 1995.
6. Гаджиев К.С. Политология: учебник / К.С. Гаджиев. – М., 2005.
7. Пугачев В.П. Введение в политологию/ В.П. Пугачев, А.И. Соловьев. - М., 1999.
8. Ergashev I. va boshqalar. Politologiya. O'quv qo'llanma. — T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. -252 b.
9. Qirg'izboev M. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. —T.: Yangi asr avlodi, 2013. -524 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. -486 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. —T.: O'zbekiston, 2017. -592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. —T.: O'zbekiston, 2018. -508 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. -T.: O'zbekiston, 2019. -400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. -T.: O'zbekiston, 2020. -456 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021. -464 b.
7. Temur tuzuklari. —T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. -184 b.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Yangi asr avlodi, 2018. -320 b.
9. Otamurodov S, Ergashev I., Akramov Sh. va boshq. PolitologiY. O'quv qo'lanma. - T.: O'zbekiston, 1998. -252 b.
10. Politologiya: Ma'ruzalar matni. / Taqrizchilar: Kim V., Bahronov J.-T., 2000.
11. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar-ul-muluk). -T.: Yangi asr avlodi, 2019. -304 b.
12. Parsons S. Introduction to Political Science. Textbook. Pearson. USA, 2017. -528 p.
13. Макс Вебер. Политика как призвание и профессия. / Перевод с немецкого и вступительная статья Л. Ф. Филиппов. -М.: Рипол Классик, 2021. -292 с.
14. Nikkolo Makiavelli. Hukmdor. -T.: Davr Press, 2018. -144 b.
15. Saidov S.Sh. Fuqarolik jamiyati (O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi). // O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 y. 4 maydagi 285-son buyrug'i. –128 b.

### **Axborot manbalari**

1. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz) – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
2. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) – O'zbekiston Milliy axborot agentligi.
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. <http://isrs.uz/> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institute.
6. <https://qomus.info/> – Onlayn ilmiy ensiklopediya
7. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz) – Fan va ta'lim portali.